V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste’mol mollari bilan to‘ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o‘sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug‘urta va boshqa turdagi xizmatlarsiz amalga oshmaydi.

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdagi xizmatlar ko‘rsatmaydigan yoki hech bo‘lmaganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli yo‘q.

2021- yil yanvar-sentyabr oylarida xizmatlar ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 15 027,7 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shu jumladan, qishloq joylarida 4 932,1 mlrd. so‘m yoki umumiy ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining 32,8 %ini tashkil qildi. 2020- yil yanvar-sentyabrga nisbatan o‘sish sur’ati 117,6 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari
(2021- yil yanvar-sentyabr oylarida)

	mlrd. so‘m	*2020- yil yanvar-sentyabrga nisbatan % hisobida*	*yakunga nisbatan % hisobida*
Jami xizmatlar:	**15 027,7**	**117,6**	**100,0**
shu jumladan, xizmat turlari bo‘yicha:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	463,8	132,1	3,1
Moliyaviy xizmatlar	2 075,2	119,4	13,8
Transport xizmatlari	3 700,0	115,8	24,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	3 477,7	113,6	23,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	555,5	111,0	3,7

	mlrd. so'm	*2020- yil yanvar-sentyabrga nisbatan % hisobida*	*yakunga nisbatan % hisobida*
Savdo xizmatlari	4 940,3	110,9	32,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar	488,2	130,6	3,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	338,8	137,5	2,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	293,0	145,6	1,9
Ijara xizmatlari	453,1	122,3	3,0
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari	312,3	118,7	2,1
Shaxsiy xizmatlar	431,4	124,8	2,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	542,7	131,3	3,6
Boshqa xizmatlar	433,4	124,7	2,9

Yuqori o'sish sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (45,6 %), ta'lim sohasidagi xizmatlarda (37,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (32,1 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (31,3 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (30,6 %), shaxsiy xizmatlarda (24,8 %), boshqa xizmatlarda (24,7 %), ijara xizmatlarida (22,3 %), moliyaviy xizmatlarda (19,4 %), kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarda (18,7 %), transport xizmatlarida (15,8 %), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (11,0 %) hamda savdo xizmatlarda (10,9 %) qayd etildi.

Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining o'sishi kuzatilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi
(2021- yil yanvar-sentyabr oylarida)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida ularning ulushi 32,9 %ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori ko‘rsatkichlar transport xizmatlari (24,6 %) hamda moliyaviy xizmatlarda (13,8 %) qayd etildi. Yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmlarida uncha katta bo‘lmagan o‘sish kuzatilib, ularning ulushi 3,7 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, nisbatan yuqori bo‘lmagan ulush me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (3,6 %), ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar (3,2 %), ta’lim sohasidagi xizmatlar (2,7 %) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (3,1 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Savdo xizmatlari tarkibi, %da

(2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida)

2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to‘rtdan uch qismini, aniqrog‘i 69,5 %ini tashkil etdi (2020- yilning mos davrida chakana savdo xizmatlari ulushi 71,3 %ga to‘g‘ri kelgan).

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 19,6 %ni tashkil etdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta’mirlash xizmatlarini qo‘shgan holda umumiy savdo xizmatlarining ulushi 10,9 %ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur’atlari, o‘tgan yilga nisbatan, %da
(2021- yil yanvar-sentyabr oylarida)



Ushbu davr mobaynida nisbatan yuqori o‘sish sur’atlari Zangiota (127,5 %), Bo‘stonliq (120,5 %), Toshkent (119,8 %), Piskent (119,8 %), Parkent (118,9 %), Quyi Chirchiq (118,6 %) tumanlarida hamda Ohangaron (119,6), Yangiyo‘l (119,1 %) va Olmaliq (118,4) shaharlarida qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo‘lmagan o‘sish Yuqori Chirchiq (117,1 %), O‘rta Chirchiq (116,8 %) tumanlarida va Chirchiq shahrida (117,2 %) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur’atlari taqqoslanishi, %da
(2021- yil yanvar-sentyabr oylarida)

2021- yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi

	Jami			Aholi jon boshiga	
	Mlrd. so‘m	2020- yil yanvar-sentyabrga nisbatan %da	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, %da	ming so‘m	2020- yil yanvar-sentyabrga nisbatan %da
Viloyat bo‘yicha	**15 027,7**	**117,6**	**100,0**	**5 166,1**	**119,6**
shaharlar:					
Nurafshon	576,2	114,6	3,8	11 080,6	107,5
Olmaliq	1 052,5	118,4	7,0	7 854,5	116,5
Angren	953,1	113,5	6,3	4 951,2	111,6
Bekobod	703,8	114,5	4,7	7 225,9	113,1
Ohangaron	303,9	119,6	2,0	7 714,4	115,9
Chirchiq	1 219,3	117,2	8,1	7 457,8	114,1
Yangiyo‘l	690,7	119,1	4,6	11 068,6	116,0
tumanlar:					
Oqqo‘rg‘on	395,8	114,7	2,7	3 699,2	113,1
Ohangaron	227,5	112,5	1,5	2 333,0	111,0
Bekobod	426,0	111,7	2,8	2 654,0	110,0
Bo‘stonliq	906,8	120,5	6,0	5 281,2	119,2
Bo‘ka	409,1	115,8	2,8	3 185,9	113,9
Quyi Chirchiq	299,8	118,6	2,0	2 708,1	116,1
Zangiota	1 494,5	127,5	9,9	9 282,5	157,1
Yuqori Chirchiq	593,1	117,1	3,9	4 413,0	119,0
Qibray	1 505,6	115,6	10,0	8 835,9	136,3
Parkent	585,6	118,9	3,9	3 694,5	116,8
Piskent	236,4	119,8	1,6	2 303,6	118,2
O‘rta Chirchiq	524,7	116,8	3,5	3 972,2	133,3
Chinoz	418,3	113,3	2,8	3 046,5	111,0
Yangiyo‘l	693,8	114,1	4,6	3 291,3	114,6
Toshkent	811,2	119,8	5,5	4 389,7	117,6

2021- yil yanvar-sentyabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Qibray tumanida qayd etildi – (10,0 %), (2020- yilning mos davrida – 10,2 %). Aksincha, eng past ko‘rsatkichlar Ohangaron tumanida – 1,5 % (2020- yilning mos davrida – 1,6 %) qayd etildi.

2021- yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 5166,1 ming so‘mga teng bo‘ldi. O‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 119,6 %ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar o‘sish sur’ati, %da



2021- yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi, ming so‘m



Joriy yilda viloyatda aholi jon boshiga ko‘rsatilgan eng yuqori xizmatlar ulushi Nurafshon shahrida - 11 080,6 ming so‘mni (o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 107,5 %) va Yangiyo‘l shahrida - 11 068,6 ming so‘mni (116,0 %) tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan eng kichik xizmatlar ulushi Quyi Chirchiq tumanida - 2 708,1 ming so‘mni (o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 116,1 %), Ohangaron tumanida - 2 333,0 ming so‘mni (111,0 %) va Piskent tumanida - 2 303,6 ming so‘mni (118,2 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi, %da

(2021- yil yanvar-sentyabr oylarida)



2021- yil yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmiga nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi 71,6 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi tahlil qilinganda eng yuqori ulush Oqqo'rg'on (87,9 %), Bo'ka (86,8 %), Yangiyo'l (85,8 %), Toshkent (85,5 %) tumanlariga to'g'ri kelib, aksincha past ulush Qibray tumanida (50,7 %) va Nurafshon shahar (38,8 %) kuzatildi.